

“16-kun gender zo‘ravonlikka qarshi faol harakatlar” kampaniyasi doirasida “Orzulari osmon qizlar” spektakli namoyish etildi



O‘zbekiston davlat Yosh tomoshabinlar teatrida 2022-yil 30-noyabr kuni Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi hamda Aholishunoslik sohasida BMT jamg‘armasi tomonidan 25-noyabr – Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish kuni boshlangan hamda 2022-yil 10-dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida yakunlanadigan “16-kun gender zo‘ravonlikka qarshi faol harakatlar” kampaniyasiga bag‘ishlangan tadbir tashkil etildi. Tadbir

“Odatiy narsalar” ko‘rgazmasi bilan boshlanib, unda zo‘ravonlikka to‘qnash kelgan 16 nafar ayol bilan haqiqatda yuz bergan voqealar hikoya qilindi.



Ko‘rgazmaning ochilish marosimida, shuningdek, Oliy Majlisi Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha qo‘mitasi raisi Malika Qodirxonova, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi rahbari Zulayho Mahkamova hamda YUNFPAning O‘zbekistondagi vakili, janob YU YU ishtirok etdilar.



Tadbir doirasida mehmonlarga uch pardali “Orzulari osmon qizlar” nomli spektakl namoyish etildi. Unda uch xil turli vaziyatda xotin-qizlar ma’lumoti va ayolning o’zini-o’zi shakllantirishi mavzusiga doir suhbatlar modellashtirilgan. Birinchi sahna ko’rinishida ushbu mavzu bo’yicha munozara maktab o’quvchilari orasida kuzatilsa, ikkinchi harakatda – bir oila a’zolari o’rtasida qizg’in muhokamaga sabab bo’ladi. Uchinchi sahnada esa mavzu ikki yosh oilaning o’zaro munosabatlari misolida yoritilgan.



“Orzulari osmon qizlar” nomli spektakl O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Teatr san’ati fakulteti “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi” ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalari Shavkatbek BAZARBAYEV, Ruslanbek RUSTAMOV, Muxlisa IZZATILLAYEVA, O‘lmasxon SOBIROVA, Davlatbek ALISHOV tomonidan ijro etildi. Spektakl professor v.b. Jahongir MAMATQOSIMOV tomonidan sahnalashtirilgan. Tadbir davomida davlat va xalqaro tashkilotlarning vakillari gender zo‘ravonlik va tengsizlik muammolariga yechim topish ustuvor ahamiyat kasb etishini hamda ularni bartaraf etish uchun hamkorlikda harakat qilish zarurligini qayd etdilar.